

Byudjet ijtimoiy soha xarajatlarini tarkibi tuzilishi hamda uning ijtimoiy siyosatga ta'siri

Nurbek Abdukarimovich O'ralov
Shuhratjon Botirjon o'g'li Abdulazizov
O'zbekiston Respublikasi bank moliya akademiyasi

Annotatsiya: Maqolada davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy soha xarajatlari hamda holini ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlarini moliyalashtirish manbalari hamda uning ijtimoiy siyosatga ta'siri ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat byudjeti, ijtimoiy siyosat, pensiya, siyosat, ijtimoiy ta'minot

The structure of budget social sector expenses and its impact on social policy

Nurbek Abdukarimovich Oralov
Shuhratjon Botirjon o'glu Abdulazizov
Academy of banking and finance of Republic of Uzbekistan

Abstract: The article examines the sources of financing of social sector expenditures and social protection activities financed from the state budget, as well as its impact on social policy.

Keywords: state budget, social policy, pension, policy, social security

Kirish

O'zbekistonda kechayotgan bugungi o'zgarishlar mamlakatda yangi bosqichni boshlab berdi, desak xato bo'lmaydi. Chunki, yurtimizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarda yuz berayotgan ulkan yangilanishlar davlatimizning dunyo hamjamiyati bilan tom ma'noda integratsiyalashuvini ta'minlamoqda. Qisqacha aytganda, bugun O'zbekiston dunyoni o'ziga chorlayapti, yopiqlikdan ochiq pragmatik siyosat sari yuzlanmoqda. Bunday holat bugungacha mavjud bo'lgan tartib-qoidalarni isloh qilishni, ularni dunyo andozalariga uyg'unlashtirishni taqozo etadi va bu, albatta, mamlakatning ijtimoiy siyosatida ham o'z aksini topmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2020-yil yakunida Oliy Majlisga Murojaatnomasida ijtimoiy sohaga alohida e'tibor qaratdilar: "... aholining ijtimoiy himoyasi yanada kuchaytiriladi. Nogironlikni belgilashning jahon andozalariga mos "ijtimoiy modeli"ga bosqichma-bosqich o'tiladi.

Muhtoj aholini protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash bo'yicha yangi tizim joriy etiladi. Bu imkoniyatdan qariyb 50 ming nafar yurtdoshimiz foydalanishi mumkin bo'ladi.

Ehtiyojmand oilalarni uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha olib borayotgan ishlarimiz ko'lami yanada kengaytiriladi. Bunda 27 mingta yoki bu yilga nisbatan 2,5 barobar ko'p oilaning ipoteka krediti bo'yicha dastlabki badallarini to'lash va kredit foizlarini subsidiyalash uchun 2,4 trillion so'm yo'naltiriladi"[1].

Xalqimizning farovon turmush kechirishi davlatimiz tomonidan olib borayotgan adolatli siyosatning bir natijasidir. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan qabul qilingan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi"da fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosati davom ettirilmoqda.

Adabiyotlar sharhi

"Ijtimoiy himoya" atamasi birinchi marta 1935-yilda AQShning "Ijtimoiy xavfsizlik bo'yicha qonun" deb nomlangan huquqiy hujjatida qo'llanilgan. Mazkur qonunga ko'ra, mamlakat har bir fuqarosining ishsizlik yoki daromadni yo'qotish, shuningdek, uning keskin kamayib ketishi (kasallik tufayli, farzand tug'ilishi natijasida, ishlab chiqarish jarohati oqibatida, nogironlik sababli) bois iqtisodiy va ijtimoiy ne'matlardan mahrum bo'lishdan himoya qiluvchi chora-tadirlar tizimi ijtimoiy himoya deb e'tirof etilgan.

Rus iqtisodchi olimi O.V.Romashev o'z asarlarining birida ijtimoiy himoya atamasini quyidagicha izohlagan: "...ijtimoiy himoyalash - bu mehnatga layoqatli fuqarolarga o'zlarining shaxsiy mehnat ulushlari, iqtisodiy mustaqilligi va tadbirkorligi hisobiga davlat tomonidan ko'rsatiladigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik kafolatlar tizimini tushunishimiz kerak"[2].

Akademik Q.X. Abdurahmonov "Ijtimoiy muhofaza tizimi – aholining hayotiy muhim manfaatlari sohasi bo'lib, uning sifat va miqdor ko'rsatkichlari davlat va jamiyatning iqtisodiy, huquqiy va madaniy rivojlanish darajasidan darak beradi. Ijtimoiy muhofazalanish huquqi – odamning munosib turmush kechirish uchun zarur bo'lgan hajmdagi fiziologik, ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish imkoniyati hisoblanadi"[3] deb ta'kidlaydi.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), Pensiya va ijtimoiy fondlar xalqaro assotsiatsiyasi o'tkazgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, dunyoda aholining keksayib borayotganligi, demografik vaziyatning keskinlashishi, ishsizlik muammosining keskin avj olishi, yashirin iqtisodiyotda band bo'lganlar sonining ko'payishi bilan

bog'liq muammolarning pensiya ta'minoti tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi natijasida pensiya ta'minoti tizimida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni bartaraf etish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. "Jahon bankining bergan ma'lumotlariga ko'ra 1990-yilda dunyo aholisining deyarli yarim milliarddan ortig'ini 60 yoshdan oshganlar tashkil etgan bo'lsa, 2030-yilga borib bu ko'rsatkich 1,4 milliardga yetadi. Bu esa pensiyaga chiquvchilarning oshishidan dalolat beradi"¹. Ammo mazkur tizimdagi muammolar yetarlicha tadqiq etilmayapti. Bu esa o'z navbatida pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish borasida xalqaro miqyosda doimiy ravishda ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini taqozo etmoqda.

Davlat moliya tizimida davlat byudjeti xarajatlari muhim hisoblanadi. Byudjet xarajatlari har bir davlatning siyosiy va iqtisodiy hayotida muhim ro'l o'ynaydi. Byudjet munosabatlari - bu budjet tizimining har qanday darajadagi boshqaruv organlari o'rtasidagi budjet vakolatlarini birlashtirish va chegaralash, shuningdek, budjet jarayonlarini ishlab chiqish, tasdiqlash, ijro etish sohasidagi barcha huquq va majburiyatlarga, majburiyatlarga rioya qilish masalalari bo'yicha munosabatlar. Budjet tufayli har qanday davlat moliyaviy resurslarni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning eng muhim sohalariga jamlashi, byudjetdan iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish vositasi sifatida foydalanishi mumkin. Davlat byudjeti xarajatlari - davlat boshqaruvi va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining funksiyalari va vazifalarini moliyaviy ta'minlashga qaratilgan mablag'lar. Byudjet xarajatlari mamlakat iqtisodiyotini tartibga solishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Byudjet xarajatlarining tarkibi va miqdoriga ko'plab omillar ta'sir qiladi:

- davlat tashkiliy tuzilishi;
- davlatning ichki va tashqi siyosati;
- iqtisodiyotning qay darajada rivojlanganligi;
- aholi turmush darajasi va boshqalar.

Ijtimoiy muammolarni hal etishda byudjet xarajatlari katta ahamiyatga ega. Fuqarolarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishning ko'plab muhim tarmoqlari (sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy ta'minot) budjetdan moliyalashtiriladi. Budjet xarajatlarini rejalashtirish davlatga budjet xarajatlarining roli va uning boshqaruvning turli jabhalariga ta'sirini hisobga olgan holda iqtisodiy rivojlanish holatini baholashga yordam beradi, chunki mamlakat xarajatlari ishlab chiqarish fondlarini yangilashga, ilg'or fan yutuqlarini ishlab chiqish va joriy etishga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy siyosatni oqilona olib borish hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini aniqlash maqsadida hamda ularni yashash sharoitlarini yaxshilashda mamalkatimizda ham bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi hukumati mamlakatimizda kam ta'minlangan toifadagi aholi sonini kamaytirish va jamiyatimiz hayotida insonparvarlik tamoyillarining yanada

¹ Tursunov J.P. Reforms in pension supply system in Uzbekistan. European Journal of Research. №3. 2019. P 43.

rivojlanishiga ko'maklashish maqsadida Mingyillik rivojlanish maqsadlari borasida ma'lum bir majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan.

Mustaqillik yillarida aholi turmush farovonligini oshirish quyidagi asosiy yo'nalishlarda olib borildi. Mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoyalash va aholi farovonligi barqarorligini ta'minlash, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni barpo etish, ekologik sharoiti noqulay bo'lgan mintaqalarni qo'llab-quvvatlash, aholini ijtimoiy himoya qilish va yangi ish o'rinlarini yaratishga asosiy e'tibor qaratildi.


O'zbekistonda keyingi yillarda jamiyatimiz hayotidagi yangilanish jarayonlari va islohotlarni chuqurlashtirishning mantiqiy davomi bo'lib iqtisodiyotning salohiyati, barqarorligi va mutanosibligini mustahkamlash asosida ijtimoiy himoyani kuchaytirishga va fuqarolarning turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan ishlarimizda yangi va yuksak bosqich bo'ldi. Bu davrda aholining ijtimoiy himoyasi tizimini mustahkamlash, uning manzilliligini oshirish, ijtimoiy himoyaning faol shakllarini yo'lga qo'yish alohida dolzarblik kasb etdi.



1-rasm. Mustaqillik yillarida aholi turmush farovonligini oshirishning asosiy yo'nalishlari [4]

O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy muhofaza qilishga qaratilgan ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning huquqiy asosini barpo etish va bu boradagi qonunlarning ijro etilishini ta'minlash bugungi kundagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Fuqarolarning ijtimoiy huquqlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlanadi. Konstitutsiyaning 46-moddasiga muvofiq Har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo'qotganda, ishsizlikda, shuningdek boquvchisini yo'qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot huquqiga ega hamda Qonunda belgilangan pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdorlari rasman belgilangan eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lishi mumkin emasligi belgilangan. Shuningdek, Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki murakkab, iqtisodiy tanglik yillarida odamlarning turmush darajasini

barqarorlashtirish maqsadida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy sohalarni saqlash, ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash jarayonlarini davlat yo'li bilan boshqarishning ko'pdan-ko'p usullari va vositalaridan foydalanildi. Jumladan, bosqichma-bosqich ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar, nafaqalar miqdori oshirildi, kompensatsiya tarzidagi bevosita pul to'lovlari, imtiyozlar, ayrim toifadagi tovar ishlab chiqaruvchilarga turli dotatsiyalar joriy qilindi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tovarlar va xizmatlar bahosidagi farqlarni byudjet orqali qoplash, aholining turli muhtoj qatlamlariga nafaqalar tayinlash, ularning manzilli bo'lishini ta'minlash, davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlar paketini ishlab chiqish va uni to'liq mablag' bilan ta'minlash kabi usullari keng qo'llanildi. Bu tadbirlarning barchasi tegishli qonuniy-huquqiy asosga tayangan holda amalga oshirildi.



2-rasm. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlarini moliyalashtirish manbalari [5]

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlari bir qator moliyalashtirish manbalariga ega bo'lib, davlat byudjeti mablag'lari ular ichida asosiy ahamiyatga va salmoqli o'ringa ega.

Davlat byudjeti xarajatlari 2019-yilda 107118,4mlrd. so'mni va 2023-yilda 257 734 mlrd. so'mni tashkil etgan. Jami byudjet xarajatlari takribida ijtimoiy soha xarajatlari yillar mobaynida o'zgarib, 2019 yilda 54 %ni, 2020 yilda 50.4 %ni, 2021 yilda 52.2 %ni, 2022 yilda 49.7 %ni va 2023 yilda 50.4 %ni tashkil etgan. Nafaqa, moddiy yordam va kompensatsion to'lovlar xarajatlarining jami byudjet xarajatlaridagi ulushi 2023 yilda 2019 yildagi 4,9 %da 7,0 % ga, uy-joy qurish dasturi xarajatlari ulushi 2019 yildagi 2,8 %dan 2021 yilda 0,4 %ga tushgan, pensiya jamg'armasiga transfertlar ulushi esa 2019 yildagi 4,4% 2023 yilda 5.8% ga ko'tarilgan.

O'z navbatida o'tgan 5 yil mobaynida ijtimoiy nafaqa, moddiy yordam va kompensatsion to'lovlar xarajatlari, pensiya jamg'armasiga transfertlar xarajatlarning ijtimoiy soha xarajatlaridagi ulushi ortib, uy-joy qurish dasturi xarajatlari 1,4% ga tushgan.

1-jadval

2019-2023 yillarda O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlari tarkibida aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlarining tutgan o‘rni,[9] mlrd. so‘mda

	Xarajatlar	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil
	Davlat byudjeti xarajatlari	107118,4	131104,5	188257,1	236692,0	257 734
	Ijtimoiy soha xarajatlari	57822,3	66018,1	92013,6	117691,9	129 891
	Jami byudjet xarajatlariga nisbatan %da	54,0	50,4	48,9	49,7	50,4
1	nafaqa, moddiy yordam va kompensatsion to‘lovlar xarajatlari	5267,2	6 573,70	10 880,3	19 397,1	18 067
1.1	jami byudjet xarajatlariga nisbatan %da	4,9	5,0	5,8	8,2	7,0
1.2	ijtimoiy soha xarajatlariga nisbatan, %da	9,1	9,9	11,8	16,5	14
2	uy-joy qurish dasturi xarajatlari	2978,1	1 905	2409	1 010,8	1 100
2.1	jami byudjet xarajatlariga nisbatan %da	2,8	1,5	1,5	0,4	0,4
2.2	ijtimoiy soha xarajatlariga nisbatan, %da	5,2	2,9	2,8	0,9	0,8
3	Pensiya jamg‘armasiga transfertlar	4700	8 000	14 700	11 092,0	15 000
3.1	jami byudjet xarajatlariga nisbatan %da	4,4	6,1	8,9	4,7	5,8
3.2	ijtimoiy soha xarajatlariga nisbatan, %da	8,1	12,1	17,0	9,4	11,5

Shuningdek, ushbu hujjat bilan 2021–2030- yillarda aholini ijtimoiy himoya qilish milliy strategiyasi konsepsiyasi va strategiyani ishlab chiqish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. Aholini ijtimoiy himoya qilish milliy strategiyasida ijtimoiy himoya sohasida ijtimoiy yordam va xizmatlarning bazaviy kafolatlari belgilanadi.

Bunga quyidagi chora-tadbirlar kiritildi:


- asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari, ta‘lim, parvarish va boshqa zarur bo‘lgan mahsulotlar va xizmatlar olishga imkoniyati bo‘lmagan bolalarga ko‘maklashish;

- kasallik, ishsizlik, onalik va nogironlik kabi holatlar tufayli o‘zini o‘zi ta‘minlash masalalarini to‘liq hal qila olmaydigan mehnatga layoqatli fuqarolarni kafolatlangan daromadlar bilan ta‘minlash;

- keksa yoshdagi fuqarolarni kafolatlangan daromad bilan ta‘minlash.

2024-yilda ijtimoiy xarajatlarga 151 504 mlrd so‘m yo‘naltiriladi, bu o‘z navbatida jami Davlat byudjeti xarajatlarining 48,2 foizini tashkil etadi. Avvalgi yillar kabi ijtimoiy xarajatlarning aksariyat qismini ta‘limga xarajatla (46%) tashkil etishi kutilmoqda. 2024 yilda ta‘limga 69 076,2 mlrd so‘m ajratilish rejalashtirilgan bo‘lib, 2023 yilda kutilayotgan xarajatlarga nisbatan 8,5 trln so‘mga ko‘proqni tashkil etadi. Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy sohada ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Ijtimoiy himoyaning yagona reyestri”ning tashkil etilgani bunga yaqqol misoldir. Yagona ijtimoiy reestr orqali budjet mablag‘larining samaradorligi va

mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj har bir fuqaroning hisobga olinishi ta'minlanmoqda.



3-rasm. Ijtimoiy xarajatlar tarkibi, 2024-yil uchun prognoz , mlrd so'm.²

Xulosa va takliflar

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, tadqiqot yakunida bir qator xulosalar shakllantirildi:

Birinchidan, mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar aholining muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan bo'lib, taraqqiyotning strategik maqsadlariga mos keladi. Aholini ijtimoiy qilishni mavjud tamoyillar asosida tashkil etish, kam ta'minlanganlikning muammolarini aniqlash, uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish hamda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sifatining oshishini ta'minlashga xizmat qiluvchi tashkilotlar faoliyatini yo'lga qo'yishga zarurat tug'ilmoqda.

Ikkinchidan, mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilishning 2030-yilgacha Milliy strategiyasi Xalqaro mehnat tashkiloti, YUNISEF, BMT Taraqqiyot Dasturi va Jahon bankining yetakchi mutaxassislaridan iborat ekspertlar guruhi ishtirokida ishlab chiqildi. Ijtimoiy himoya bo'yicha milliy strategiyadan jahon andozalariga mos ravishda kambag'allikni kamaytirish va ijtimoiy himoyani kuchaytirishni ta'minlashga erishishda samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son

² <https://openbudget.uz>

2. O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-938-XII-son, 03.09.1993. www.lex.uz – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son
3. Mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyoti va aholi farovonligini ta’minlash: yutuqlar, tendensiya va istiqbollar. Ilmiy-ommabop risola. TMI. T.: 2016. 47-b.
4. Jumaniyozov, I. T. (2021). The Progressive Foreign Experiments in the Activity of Sovereign Wealth Funds. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 109-116.
5. Jumaniyozov, I. (2018). Impact of Development Finance Institutions on Economic Growth: Implications for Reconstruction and Development Fund of Uzbekistan. *International Journal of Management Science and Business Administration*, 4(2), 84-88.
6. Jumaniyozov, I. (2020). ISSUES OF ENSURING THE TRANSPARENCY OF SOVEREIGN WEALTH FUNDS. *International Finance and Accounting*, 2020(5), 1.
7. Jumaniyozov, I. (2020). FOREIGN EXPERIENCE IN THE ACTIVITIES OF SOVEREIGN FUNDS. *International Finance and Accounting*, 2020(2), 1.
8. Jumaniyozov, I., & Xaydarov, A. (2023). The importance of social insurance in social protection. *Science and Education*, 4(1), 1033–1043. Retrieved from <https://opendscience.uz/index.php/sciedu/article/view/4941>
9. Inomjon, J. (2023). GENDER BYUDJETLASHTIRISHDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING O‘RNI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(6), 1187-1191.
10. Бахронов, Ж., & Жуманиязов, И. (2023). Партисипатор бюджетлаштириш ва уни Ўзбекистонда қўллаш долзарблиги. *Science and Education*, 4(2), 1486–1493. Retrieved from <https://opendscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5234>
11. Davlatboyeva, M. S. qizi, & Jumaniyozov, I. T. (2023). Yashil byudjetlashtirish va uni O‘zbekistonda joriy etish istiqbollari. *Science and Education*, 4(2), 1509–1516. Retrieved from <https://opendscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5237>
12. Jumaniyozov, I., & Mahmudov, M. (2022). Experience of foreign countries in attracting foreign investment. *Asian Journal of Research in Banking and Finance*, 12(5), 32-37.
13. Jumaniyozov, I. T., & Abdumannobov, A. M. (2020). MANAGING PUBLIC DEBT. In *Ключевые проблемы современной науки* (pp. 3-7).
14. Jumaniyozov, I. T., & Bakhodirkhujayev A.F. (2020). ISSUES AND CHALLENGES FOR THE IMPLEMENTATION OF MACROPRUDENTIAL POLICY IN UZBEKISTAN. In *Ключевые проблемы современной науки* (pp. 8-11).

15. T. Jumaniyazov, & A. Khaydarov. (2023). THE IMPACT OF UZBEKISTAN'S SOVEREIGN WEALTH FUNDS ON ECONOMIC GROWTH. *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, 10, 1–7. Retrieved from <https://www.americanjournal.org/index.php/ajrhss/article/view/495>

16. Jumaniyazov, I. T. (2019). The impact of Uzbekistan Reconstruction and development fund's expenditure on GDP growth. *Science, research, development*, 16.

17. Жуманиязов, И. Т. (2023). РЕСПУБЛИКА ВА МАҲАЛЛИЙ БЮДЖЕТ ДАРОМАДЛАРИ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ. *PEDAGOGS jurnali*, 35(4), 109-120.

18. Jumaniyazov, I., & To'laganova, F. (2023). Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ moliya strategiyasini rivojlantirishda xorij tajribasi. *Science and Education*, 4(6), 836–847. Retrieved from <https://opendscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6095>

19. Jumaniyazov, I., & Qayumova, M. (2023). Fuqarolik ishtirokidagi "Tashabbusli byudjet" turlari va uni O'zbekistonda qo'llash dolzarbligi. *Science and Education*, 4(6), 853–859. Retrieved from <https://opendscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6101>

20. Жуманиязов, И. Т., & Садыкова, Н. О. (2023). Ўзбекистонда ва жаҳонда суверен фондлар инвестицион фаолияти. *Science and Education*, 4(6), 915–920. Retrieved from <https://opendscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6106>

21. Jumaniyazov, I., & Vohidova, R. (2023). Davlat byudjeti mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratni kuchaytirish yo'llari. *Science and Education*, 4(6), 881–887. Retrieved from <https://opendscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6100>

22. Inomjon, J., & Sarvar, A. (2023). SUVEREN FONDLAR FAOLIYATI VA ULARNING MOLIYAVIY MABLAG 'LARINI SAMARALI FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI. *PEDAGOGS jurnali*, 35(4), 102-108.

23. Jumaniyazov, I. T., & Islomov, A. (2023). O 'RTA MUDDATLI DAVR UCHUN FISKAL STRATEGIYANI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 35(4), 121-127.

24. Jumaniyazov, I. T., & Abdurahmonov, Q. (2023). TIKLANISH VA TARAQQIYOT JAMG'ARMASINING BANKLAR FAOLIYATIDAGI ISHTIROKI. *PEDAGOGS jurnali*, 35(4), 139-146.

25. Asror, A., & Inomjon, J. (2023). O'ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI ISH HAQI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *PEDAGOGS jurnali*, 35(4), 128-138.

26. I.T.Jumaniyazov, & I.A.Mingboyev (2023). Gender budgeting and prospects for its implementation in Uzbekistan. *Science and Education*, 4 (5), 1518-1523.

27. Turayevich, J. I., & Akmal o'g'li, S. M. (2023). INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHDA TIKLANISH VA TARAQQIYOT JAMG'ARMASINING O'RNI. *PEDAGOGS* jurnali, 35(4), 147-157.

28. Jia, X., Cui, Y., Patro, R., Venkatachalam, S., Kanday, R. & Turayevich, J. (2023). Application of fractional-order nonlinear equations in coordinated control of multi-agent systems. *Nonlinear Engineering*, 12(1), 20220335. <https://doi.org/10.1515/nleng-2022-0335>

29. Abdullaev Aybek Nazarbaevich, Jumaniyazov Inomjon To'raevich, Sabirov Mirza Qilichbayevich, & Gulomov Ibrokhim Rustam ugli. (2024). Development Of China's Sovereign Wealth Funds. *Wire Insights: Journal of Innovation Insights*, 2(1), 1–8. Retrieved from <https://academiaone.org/index.php/7/article/view/479>

30. Sovereign wealth funds of the Republic of Uzbekistan in the post-pandemic period. (2023). *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, 1(2), 355-372. <https://euroasianjournals.org/index.php/pc/article/view/73>

31. Mirza Qilichbayevich Sabirov, Ibrokhim Rustam ugli Gulomov, Inomjon To'raevich Jumaniyazov, & Aybek Nazarbaevich Abdullaev. (2023). Relevance and Application of Compulsory Health Insurance in Republic of Uzbekistan. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 2(11), 71–76. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/jiphr/article/view/1477>

32. Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Shavkat Bayramovich Babaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, & Inomjon To'raevich Jumaniyazov. (2024). TAX RELATIONS IN BUSINESS ENTITIES PROVIDING NON-STATE EDUCATIONAL SERVICES. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 25, 123–134. Retrieved from <http://www.ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/969>

33. Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Inomjon To'raevich Jumaniyazov, Shavkat Bayramovich Babaev, & Mirza Qilichbayevich Sabirov. (2024). PROSPECTS OF ORGANIZING RENTAL OPERATIONS IN NON-GOVERNMENT EDUCATIONAL ORGANIZATIONS ON THE BASIS OF INTERNATIONAL STANDARDS OF FINANCIAL REPORTING. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(2), 104–114. Retrieved from <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/5204>

34. Shavkat Bayramovich Babaev, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, & Inomjon To'raevich Jumaniyazov. (2024). SOME ISSUES OF THE DEVELOPMENT OF BANKING INNOVATIONS IN THE COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN. *Academia Repository*, 5(03), 31–37. Retrieved from <https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/662>

35. Shavkat Bayramovich Babaev, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, Inomjon To'raevich Jumaniyazov, & Inomjon To'raevich

Jumaniyazov. (2024). CONCEPTUAL REFLECTION OF THE CHANGING ROLE OF THE STATE EXPORT POLICY IN THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN. European Scholar Journal, 5(3), 5-8. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/esj/article/view/4393>

36. Tursunov J.P. Reforms in pension supply system in Uzbekistan. European Journal of Research. №3. 2019. P 43.

37. Abdurahmonov Q.X. va boshqalar. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Darslik. –T.: —Iqtisodiyot, 2013. 125-b.

38. Федотов А. История возникновения пенсионных систем в зарубежных странах / А. Федотов // Труды ИСА РАН. – 2006. – № 23. – С. 308-316. (http://pnu.edu.ru/media/ejournal/articles-2015/TGU_6_174.pdf).

39. Shuhrat ABDULAZIZOV. ESG STANDARTLARI VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. International Journal of Finance and Digitalization. Vol. 3 Issue 01, 2024

40. <http://www.pfru.uz>

41. <https://openbudget.uz>